

SHEKSPIR TRAGEDIYALARIDA SHAXS MASALASI.

Zaribova Mo'tabar

Urganch Ranch texnologiya universiteti 2-kurs talabasi.

Annontatsiya. Ushbu maqolada Uilyam Shekspir tragediyalarida shaxs masalasi qanday yoritilganligi tahlil qilinadi. Shekspir asarlarida inson shaxsiyati, uning axloqiy tanlovi, ichki ziddiyatlari va jamiyat bilan kurashi markaziy o'rin tutadi. "Gamlet", "Qirol Lir", "Otello" kabi tragediyalarida bosh qahramonlar o'z shaxsiy erkinligi, taqdiri va axloqiy ma'suliyati bilan yuzlashadi. Ushbu tragediyalarida insonning psixologik kechinmalari va ichki inqirozlarini chuqur yoritib, shaxs va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiradi. Maqolada Shekspir qahramonlarining ruhiy olami, ularning tanlovlari va fojeaviy taqdiri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Shaxs masalasi, ichki ziddiyat, axloqiy tanlov, ruhiy kechinmalar, jamiyat va shaxs.

Buyuk dramaturg Uilyam Shekspir Angliyaning Sretford shaharchasida dunyoga kelgan. Shekspir dastlab pyesalarni qayta ishlab, sahnalashtirish bilan shug'ullangan, keyinchalik esa asarlar yoza boshlagan. "Globus" teatrida o'zining eng sara asarlarini sahnalashtirgan. Shekspirning adabiy faoliyati 3 davrga bo'linadi. Adabiy faoliyati poemalar va qator sonetlar yozishdan boshlangan. Adib ijodining ikkinchi davrida o'zining mashhur drama va tragedik sahna asarlarini yaratdi. Ular "Gamlet", "Otello", "Qirol Lir", "Makbet", "Koriolan" fojealaridir. Shekspirning eng mashhur "Gamlet" tragediyasida tasvirlangan O'rta asr Daniyasi shartli, ramziy ma'noga ega bo'lib, Daniya orqali butun Angliya, qirol saroyi, ingliz aristokratsiyasi tasvirlanadi. Shekspir o'z zamonasi oldinga surgan masalalar, voqea va xarakterlarini yuksak ijtimoiy -falsafiy umumlashtirishlar darajasiga ko'taradi, kichik davrlarda bo'lib o'tgan shaxsiy masala orqali Renessansning so'ngi davrlarida Ovropa mamlakatlarining hammasida ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy krizis, umumjahon tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan ziddiyatlar, asrlar davom etgan ijtimoiy -iqtisodiy formatsiyalar almashinishi jarayonini ifoda ettirgan.

Personajlarning psixologiyasi, fikr-tuyg'ulari, xatti-harakatlarida chuqur ma'no bor, pyesada ana shu ulkan o'zgarishlarning kishilar ongiga qanday ta'sir etayotganligi badiiy vositalar orqali aks ettirilgan. Inson shaxsiyatining murakkab jihatlarini chuqur yoritib bergan. Shaxsiy ziddiyat, axloqiy tanlov, taqdir va erkinlik, jamiyat bilan to'qnashuv kabi masalalar asosiy o'rin tutadi.

Asarning bosh qahramoni Gamlet o'zining shaxsiyati, ichki kechinmalari va tashqi voqelik o'rtasida og'ir kurash olib boradi. Gamletning shaxsiy tragediya davomida ichki azob va ziddiyatlar girdobida qoladi. Nafaqat ichki ziddiyatlar, balki atrofidagi odamlar bilan ham kurash olib boradi. Shekspir uning shaxsiyatini boshqa obrazlar ya'ni ishonchini yo'qotgan, uning hukmronligiga qarshi chiqqan amakisi va dushmani Klaudiy, amakisiga turmushga chiqib, Gamletning ishonchini yo'qotgan onasi- Gertruda, o'z his-tuyg'ularida ikkilangan, uni sevsada, unga ishonmaydigan va undan uzoqlashishga harakat qilgan sevgan qizi - Ofeliyalar orqali ochib beradi.

Gamletning jamiyat bilan kurashi uning yolg'izligini yanada chuqurlashtiradi. U o'zining shaxsiy tamoyillarini jamiyat talablariga moslashtira olmaydi, bu esa fojiali yakunga olib keladi. Shaxsiy ishonch va manipulyatsiyaning inson taqdiriga ta'sirini ko'rsatib beruvchi " Otello " dramasida ham shaxs masalasi markaziy mavzulardan biridir.

Asar inson tabiatining murakkab tomonlarini, shaxsiy va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanuvchi identifikatsiyani o'rganadi. Otelloning shaxsiy va ijtimoiy mavqei bu dramada begona, tashqi dunyodan kelgan shaxs sifatida tasvirlanadi. U qora tanli mavr bo'lishiga qaramay, Venetsiya jamiyatida yuksak harbiy unvonga erishgan. Yagona narsa - uning harbiy iste'dodi va xizmatlari unga obro' olib kelgan, ammo shaxs sifatida hali ham begona hisoblanadi. Shekspir " Otello " da shaxs va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ko'rsatib beradi. Otelloning shaxsiyatini yo'q qilish uchun ataylab fitna uyushtirgan ichki ishonchsizligini va jamiyatda o'zini oqlash istagini manipulyatsiya qilgan Yago asarning eng murakkab qahramoni sifatida gavdalanitirgan.

Otelloning rashqi va ishonchsizligi uni shaxsiy tanazzulga olib keladi. Uning sevimli ayoli Dezdemon bilan munosabatlari Yagoning yolg'onlari sababli shubha ostiga tushadi. Rashq insonga o'z xulq - atvori ustidan nazoratni yo'qotishiga sabab bo'ladi, bu esa oxir - oqibatda Otelloning shaxs sifatida yemirilishiga olib keladi. " Qirol Lir " tragediyasida esa bosh qahramon o'z qizlari bilan bo'lgan munosabatlarida shaxsiy xatolar qiladi. U jamiyatdagi mavqeyiga ortiqcha ishonib, oxir - oqibat xiyonat va yolg'onlar qurboniga aylanadi. Shekspir tragediyalarida qahramonlar o'z qarorlarining oqibatlari bilan yuzlashishga majbur bo'ladilar. Ularning shaxsiy tanlovlari ko'pincha halokatli bo'lib, tragediyaning markaziy nuqtasiga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, Shekspir tragediyalarida shaxs masalasi inson mohiyatining murakkabligini ochib beradigan asosiy mavzulardan biridir. Qahramonlar o'z ichki ziddiyatlari, ijtimoiy bosim va taqdir oldidagi ojizligi tufayli fojiali natijalarga duch keladilar. Shekspir asarlarida hech qachon yaxshilik yovuzlik ustidan g'alaba qilmaydi. Ushbu asarlar bugungi kunda ham inson psixologiyasi va shaxsiy tanlov muammolarini yoritishda dolzarbligini saqlab qolgan. Bu asarlar oradan qancha yil o'tsa - da, hech qachon kitobxonlar qo'lidan va qalbidan tushmay keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U. Shekspir, Hamlet, Daniya shahzodasi. Ingliz tilidan tarjima, M.Loziński. M.: Nashriyotchi: AST Astrel, 2011-yil.
2. Shekspir. Saylanma, 3 - jild. - T., 2008
3. Shekspir, " Hamlet ". Jahon adabiyoti, 2013.
4. Shvedov Yu. Uilyam Shekspir. Tadqiqot, M., 1975-yil.